



NOVERBAL MULOQOTDA HISSIYOTLAR IFODALANISHINING GENDERGA XOS XUSUSIYATLARI

Ergasheva S.,

TDSHU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada noverbal muloqot jarayonida hissiyotlarning ifodalanishi va ularning genderga xos jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mimika, jest, paralingvistik vositalar, proksemika hamda takesik vositalarning erkak va ayollar kommunikativ xulq-atvoridagi o'рни yoritilgan. Shuningdek, hissiy holatlarni anglash va uzatishda gender omilining ta'siri psixolingvistik hamda sotsiolingvistik nuqtayi nazardan ko'rib chiqilgan. Zamonaviy tadqiqotlar natijalari asosida ayollarning hissiy ekspressivligi va noverbal signallarni idrok etishdagi ustunligi, erkaklarning esa hissiyotlarni nazorat qilish va yashirishga moyilligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: noverbal muloqot, gender, hissiyot, mimika, jest, paralingvistika, emotsional ekspressivlik, kommunikativ xulq

Insonlar o'rtasidagi muloqot faqat verbal vositalar orqali emas, balki turli noverbal signallar yordamida ham amalga oshiriladi. Psixologlar va kommunikatsiya tadqiqotchilarining fikricha, kundalik muloqotda axborotning muhim qismi aynan noverbal vositalar orqali uzatiladi. Yuz ifodalari, qo'l harakatlari, ovoz tembri, tana holati va masofa kabi omillar suhbatdoshning hissiy holati haqida muhim ma'lumot beradi.

Noverbal muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri hissiyotlarni ifodalash hisoblanadi. Inson quvonch, qayg'u, g'azab, qo'rquv, hayrat va boshqa hissiy holatlarni ko'pincha so'zlardan ko'ra samaraliroq tarzda noverbal vositalar orqali



namoyon etadi. Shu sababli hissiyotlarning noverbal ifodasi kommunikativ jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

So'nggi yillarda gender lingvistikasi va kommunikatsiya nazariyalarida hissiyotlarning genderga xos ifodalanishi masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlar ayollar hissiyotlarni ifodalashda erkaklarga nisbatan ko'proq ekspressiv ekanligini, erkaklar esa ijtimoiy stereotiplar ta'sirida hissiy reaksiyalarini ko'proq nazorat qilishlarini ko'rsatadi. Ayollar yuz ifodalari va ovoz intonatsiyasi orqali hissiy ma'lumotlarni aniqlashda erkaklarga qaraganda yuqoriroq natijalarni namoyon etishi qayd etilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi noverbal muloqotda hissiyotlar ifodalanishining genderga xos xususiyatlarini ilmiy va badiiy manba asosida tahlil qilishdan iborat.

Noeverbal muloqot va hissiyotlar ifodasi

Noverbal kommunikatsiya insonning ichki kechinmalari va emotsional holatini aks ettiruvchi vositalar tizimidir. P.Ekman[6], R.Birdwhistell[7] kabi olimlar noverbal signallarning hissiy ma'lumot uzatishdagi rolini chuqur tadqiq qilganlar.

P.Ekman[6], tadqiqotlariga ko'ra, quvonch, qayg'u, qo'rquv, g'azab, nafrat va hayrat kabi asosiy hissiyotlar universal mimik ifodalarga ega bo'lib, turli madaniyat vakillari tomonidan deyarli bir xil tarzda tushuniladi. Ushbu hissiyotlar ko'pincha yuz mushaklarining harakati orqali namoyon bo'ladi.

Hissiyotlarning noverbal ifodalanishida quyidagi vositalar muhim ahamiyatga ega:

- mimika;
- jestlar;
- tana harakatlari;
- ko'z qarashi;
- ovoz ohangi;



- masofa va fazoviy joylashuv;
- tegish (takesika).

Mazkur vositalar yordamida inson o‘z hissiy holatini ongli yoki ongsiz ravishda namoyon qiladi.

Gender tushunchasi va kommunikativ xulq

Gender biologik jinsdan farqli ravishda jamiyat tomonidan shakllantiriladigan ijtimoiy-psixologik kategoriya hisoblanadi. Erkak va ayollarga nisbatan mavjud stereotiplar ularning kommunikativ xulq-atvoriga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘pgina madaniyatlarda ayollardan mehribonlik, samimiylik va hissiy ochiqlik kutiladi. Erkaklardan esa qat’iyatlilik, hissiy barqarorlik va vazminlik talab etiladi. Natijada hissiyotlarni ifodalash usullari ham genderga qarab farqlanadi.

T. Chaplinning[1], tadqiqotlariga ko‘ra, ayollar ijobiy hissiyotlar va qayg‘u kabi ichki kechinmalarni erkaklarga qaraganda ko‘proq namoyon etadilar. Erkaklar esa ko‘pincha hissiyotlarini yashirishga yoki nazorat qilishga moyil bo‘ladilar.

Mimika orqali hissiyotlarning genderga xos ifodalanishi

Mimika hissiy ma’lumot uzatishning eng muhim noverbal vositalaridan biridir. Tadqiqotlar ayollarning yuz ifodalari erkaklarnikiga qaraganda ko‘proq ekspressiv ekanligini ko‘rsatadi [1, 17-b.].

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida ham qahramonlarning hissiy holati ko‘pincha mimik vositalar orqali ifodalanadi. Jumladan, Hasanali Otabekning muhabbat sirini anglay boshlagan vaziyatda qahramonning yuz ifodasi quyidagicha tasvirlanadi:

“qip-qizil qizarib gunohkorlardek yerga qaragan edi” [11, 13-b.].

Mazkur parcha sevgi va uyalish hissiyotlarining mimik ifodasini aks ettiradi. Otabek o‘z his-tuyg‘ularini ochiq bayon qilmasa-da, yuzining qizarishi va nigohini



yashirishi orqali ichki kechinmalari oshkor bo‘ladi. Bu holat erkaklarga xos hissiy nazorat va tuyg‘ularni bilvosita ifodalash tendensiyasini namoyon etadi.

Jest va tana harakatlarida gender farqlari

Jestlar hissiy ma’lumotlarni kuchaytiruvchi muhim noverbal vositalardir. Ayollar odatda mayin va emotsional xarakterdagi jestlardan foydalansalar, erkaklar ko‘proq vazmin va nazorat qilingan tana harakatlarini namoyon etadilar [11, 25-b.].

“O‘tkan kunlar” romanida Otabekning Kumushga nisbatan his qilgan muhabbati uning tana harakatlarida ham aks etadi:

“Otabek bir necha kunlardan beri Hasanalining ko‘ziga boshqacha ko‘rinar edi... barchani unutib qo‘yishi va boshqa ishlarga e’tibor va parvosizligi edi” [11, 10-b.].

Mazkur tasvir qahramonning ichki hissiy kechinmalari uning tashqi xulq-atvorida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi. Erkak qahramon o‘z sevgisini so‘z bilan emas, balki o‘ychanlik, xomushlik va diqqatsizlik orqali ifodalaydi.

Nigoh va ko‘z qarashlarining gender xususiyatlari

Ko‘z qarashi hissiy ma’lumotlarni uzatuvchi eng kuchli noverbal vositalardan biridir. Tadqiqotlarga ko‘ra, ayollar hissiy holatlarini nigoh orqali ifodalash va boshqalarning nigohidagi hissiy ma’nolarni anglashda erkaklarga nisbatan ustunlikka ega [11, 28-b.].

Roman qahramonlarida ham nigoh muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif Kumushning jozibasini Otabekning xotirasida quyidagicha ifodalaydi:

“Qora ko‘zlari, kamon qoshlari...” [11, 11-b.].

Yana bir o‘rinda:

“Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar...” [11, 11-b.].



Bu yerda “kulib boqish” va “cho‘chib qochish” ayol obraziga xos bo‘lgan hayo, nazokat va emotsional noziklikni ifodalovchi noverbal birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

Salbiy hissiyotlarning noverbal ifodalanishi

Noverbal vositalar nafaqat ijobiy, balki salbiy hissiyotlarni ham ifodalaydi. Rashk, g‘azab va bezovtalik ko‘pincha yuz ifodasi orqali namoyon bo‘ladi.

“O‘tkan kunlar” romanida Homid obrazining Kumush haqidagi suhbatga reaksiyasi bunga misol bo‘la oladi:

“Bu savoldan nima uchundir Homidning chehrasi buzildi...” [11, 5-b.].

Shuningdek:

“Homidning yuzidagi boyag‘i holat yana ham kuchlanib go‘yo toqatsizlang‘andek ko‘rinar edi” [11, 5-b.].

Mazkur tasvirlar Homidning rashk va ichki bezovtalik hissiyotlarini mimik vositalar orqali ifodalaydi.

Xulosa

Noverbal muloqotda hissiyotlarning ifodalanishi gender omili bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotlar ayollarning hissiy ekspressivligi yuqoriroq ekanligini, ular mimika, jest va paralingvistik vositalardan faolroq foydalanishini ko‘rsatadi. Erkaklar esa hissiyotlarni nazorat qilishga va yashirishga ko‘proq moyildirlar.

Shuningdek, ayollar noverbal signallarni anglash va talqin qilishda erkaklarga qaraganda yuqoriroq natijalarni namoyon etadilar. Bunda biologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy stereotiplar va gender rollari ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv davrida noverbal kommunikatsiyaning gender aspektlarini chuqur o‘rganish samarali muloqotni tashkil etish, madaniyatlararo



aloqalarni rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyani oshirish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

“O‘tkan kunlar” romani tahlili shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Qodiriy qahramonlar ruhiyatini ochishda noverbal vositalardan keng foydalangan. Erkak obrazlarda hissiyotlar ko‘proq ichki kechinmalar, sukut va mimik reaksiyalar orqali ifodalansa, ayol obrazlarda nigoh, jilmayish va hayo bilan bog‘liq noverbal belgilar ustunlik qiladi. Bu esa asarda hissiyotlarning genderga xos ifodalanish xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chaplin T.M. Gender and Emotion Expression: A Developmental Contextual Perspective // *Emotion Review*. – 2015. – Vol. 7(1). – P. 14–21.
2. Lin Y., Ding H., Zhang Y. Gender Differences in Identifying Facial, Prosodic, and Semantic Emotions // *Journal of Speech, Language, and Hearing Research*. – 2021. – Vol. 64. – P. 4439–4457.
3. Deng Y., Chang L., Yang M., Huo M., Zhou R. Gender Differences in Emotional Response // *PLOS ONE*. – 2016. – Vol. 11(6). – P. 1–18.
4. Noller P. Sex Differences in Nonverbal Communication // *Australian Journal of Psychology*. – 1986. – Vol. 38(1). – P. 19–30.
5. Hertenstein M.J. Gender and the Communication of Emotion Via Touch // *Sex Roles*. – 2011. – Vol. 64. – P. 70–80.
6. Ekman P. *Emotions Revealed*. – New York: Times Books, 2003. – 320 p.
7. Birdwhistell R. *Kinesics and Context*. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970. – 336 p.
8. Knapp M., Hall J. *Nonverbal Communication in Human Interaction*. – Boston: Wadsworth, 2014. – 512 p.
9. Matsumoto D., Hwang H. *Nonverbal Communication: Science and Applications*. – Los Angeles: Sage Publications, 2016. – 420 p.
10. Brody L.R. Gender Differences in Emotional Development // *Journal of Personality*. – 1985. – Vol. 53(2). – P. 102–149.
11. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. www.ziyouz.comkutubxonasi